O‘ZBEK OILALARIDA NIZOLI VAZIYATLARNI HAL QILISH USULLARI VA ULARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

G.B.Ishankulova[1], N.M.Kuchimova[2]

1. a Qarshi davlat universiteti dotsenti, Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
2. Psixologiya yo‘nalishi 2- kurs magistranti

Mas'ul muallif: Ishankulova Gulzoda Baxromovna, a Qarshi davlat universiteti dotsenti, Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Received: 05 Noyabr 2026
Accepted: 10 Noyabr 2026
Published: 15 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Ishankulova, G. B. O‘ZBEK OILALARIDA NIZOLI VAZIYATLARNI HAL QILISH USULLARI VA ULARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI / G. B. Ishankulova, N. M. Kuchimova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 512–516.

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek oilalarida nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishi, ularni hal qilish usullari va mazkur jarayonning psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Unda oilaviy nizolar muammosining psixologik tadqiqotlarda o‘rganilishi, er-xotin munosabatlarida nizoli vaziyatlarning kelib chiqishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar hamda muallif tomonidan olib borilgan empirik tadqiqot natijalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida oilaviy nizolarni konstruktiv hal etish, shaxslararo munosabatlarni barqarorlashtirish va nizolarning salbiy oqibatlarini oldini olishga qaratilgan psixologik-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Oilaviy nizo, nizoli vaziyat, psixologik xususiyatlar, oilaviy munosabatlar, konfliktni hal qilish, muloqot madaniyati, o‘zaro tushunish, murosa, oilaviy muhit.

СПОСОБЫ ПРЕОДОЛЕНИЯ КОНФЛИКТНЫХ СИТУАЦИЙ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ И ИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы возникновения конфликтных ситуаций в узбекских семьях, способы их преодоления и психологические особенности данного процесса. Освещаются вопросы изучения проблемы семейных конфликтов в психологических исследованиях, социально-психологические факторы, влияющие на возникновение конфликтных ситуаций в супружеских отношениях, а также результаты эмпирического исследования, проведённого автором. На основе результатов исследования разработаны психолого-практические рекомендации, направленные на конструктивное преодоление семейных конфликтов, стабилизацию межличностных отношений и предупреждение негативных последствий конфликтных ситуаций.

Ключевые слова: Семейный конфликт, конфликтная ситуация, психологические особенности, семейные отношения, разрешение конфликтов, культура общения, взаимопонимание, компромисс, семейная среда.

METHODS OF OVERCOMING CONFLICT SITUATIONS IN UZBEK FAMILIES AND THEIR PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS

Abstract. The article examines the occurrence of conflict situations in Uzbek families, ways of overcoming them, and the psychological characteristics of this process. It addresses the study of family conflicts in psychological research, the socio-psychological factors influencing the emergence of conflict situations in marital relationships, as well as the results of an empirical study conducted by the author. Based on the findings of the study, psychological and practical recommendations have been developed aimed at constructively overcoming family conflicts, stabilizing interpersonal relationships, and preventing the negative consequences of conflict situations.

Keywords: Family conflict, conflict situation, psychological characteristics, family relationships, conflict resolution, communication culture, mutual understanding, compromise, family environment.

Kirish. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jamiyatning muhim ijtimoiy instituti hisoblangan oila va undagi shaxslararo munosabatlar mazmuniga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan o‘zgarishlar oilaviy munosabatlarning an’anaviy modellarini qayta anglash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunday ijtimoiy o‘zgarishlar oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, rollar va mas’uliyatlarni taqsimlashi, qaror qabul qilishi hamda shaxslararo muloqot jarayonida turli kelishmovchilik va nizoli vaziyatlarning yuzaga kelish xususiyatlariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy o‘zbek oilasida nizoli vaziyatlar er-xotin o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, oilaviy rollar va mas’uliyatlarni taqsimlash, moddiy-maishiy masalalar, farzand tarbiyasi, qarindoshlar bilan munosabatlar, shaxsiy ehtiyoj va

manfaatlarni uyg‘unlashtirish bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Nizoning oilaviy munosabatlarga ta’siri ko‘p jihatdan uning qanday qabul qilinishi va qaysi usulda hal etilishiga bog‘liq bo‘lib, oila a’zolarining nizoli vaziyatlarda raqobat, hamkorlik, murosaga kelish, chetlanish va moslashish kabi strategiyalarni tanlashi oiladagi psixologik muhit, o‘zaro ishonch, emotsional yaqinlik va munosabatlar barqarorligini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mazkur muammoning dolzarbligi globallashuv jarayonlari ta’sirida yanada kuchaymoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, ta’lim va mehnat migratsiyasi, turli madaniy qadriyatlar va hayot tarzlarining keng tarqalishi natijasida oilaviy munosabatlar, nikoh va oilaviy mas’uliyat haqidagi tasavvurlar o‘zgarib bormoqda. An’anaviy oilaviy qadriyatlar bilan zamonaviy individual ehtiyojlar, shaxsiy mustaqillik va o‘zaro sheriklikka asoslangan munosabatlar modelining o‘zaro ta’siri oila a’zolari o‘rtasida yangi mazmundagi kelishmovchiliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy o‘zbek oilalarida nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarining namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash, ularning psixologik mazmuni va o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etish, konstruktiv va destruktiv usullarni farqlash hamda ularni belgilab beruvchi psixologik omillarni kompleks o‘rganish ijtimoiy psixologiyaning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar nizoli vaziyatlarning oldini olish, ularni konstruktiv hal etish mexanizmlarini takomillashtirish, oilaviy munosabatlar barqarorligini ta’minlash va oila a’zolarining psixologik farovonligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan psixologik-profilaktik va korreksion dasturlarni ishlab chiqish uchun muhim nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilishi. O‘zbek oilalarida nizoli vaziyatlarning yuzaga kelish sabablari, er-xotin munosabatlaridagi kelishmovchiliklar, gender rollari va oilaviy mas’uliyatlarning taqsimlanishi, shaxslararo muloqot, o‘zaro tushunish, emotsional yaqinlik hamda oilaviy munosabatlarning psixologik xususiyatlari mamlakatimiz psixolog olimlari F.A.Akramova, Sh.X.Abdullayeva, Sh.R.Barotov, X.K.Karimov, V.M.Karimova, U.D.Qodirov, F.R.Ro‘ziqulov, A.T.Ro‘ziqulova, Z.A.Rasulova, U.S.Sariboyeva, M.S.Salayeva, N.A.Sog‘inov, G‘.B.Shoumarov, E.SH.Usmanov, O‘.O.B.Shamsiyev va boshqalarning tadqiqotlarida turli jihatlardan o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda oilaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, nikoh munosabatlarining barqarorligi, er-xotinning o‘zaro moslashuvi, oilaviy qadriyatlar va ustanovkalar, oilaviy rollarning bajarilishi, shaxslararo muloqot va emotsional munosabatlarning mazmuni, shuningdek, oilaviy nizolarning kelib chiqishida shaxsiy va ijtimoiy-psixologik omillarning o‘rni masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, erkak va ayollarning oilaviy munosabatlardagi ijtimoiy-psixologik mavqei, gender rollarining shakllanishi va namoyon bo‘lishi, oilaviy vazifa va mas’uliyatlarni taqsimlashdagi o‘ziga xosliklar, o‘zaro munosabatlardagi psixologik kutishlar hamda ularning kelishmovchiliklar va nizoli vaziyatlarning shakllanishiga ta’siri bilan bog‘liq masalalar ham ilmiy tadqiqotlar doirasida yoritilgan.

G‘.B.Shoumarov o‘zining «Oila psixologiyasi» kitobida oilaviy nizolar haqida gapirib, uning yuzaga kelishida kelin-kuyovning oila haqidagi tasavvurlari yetarlicha shakllanmaganligi, kasbiy faoliyat va oilaviy qadriyatlar o‘rtasidagi nomutanosiblik, yetakchilik uchun raqobat, o‘zaro tushunishning yetishmasligi, jinsiy tarbiyaga oid bilimlarning cheklanganligi, rashk va ishonchsizlik kabi psixologik hamda ijtimoiy omillar muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, olim er-xotin munosabatlarida muloqot madaniyatining o‘rniga alohida e’tibor qaratib, sog‘lom oilaviy munosabatlar shaxsning o‘zini anglashi, boshqalarning psixologik holatini tushunishi, vaziyatni adekvat baholashi va unga mos munosabat bildira olishiga asoslanishini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, oila a’zolarining individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda muloqotni tashkil etish o‘zaro tushunishni kuchaytirish va nizolarni kamaytirishning muhim sharti sifatida qaraladi. G‘.B.Shoumarovning mazkur ilmiy qarashlari oilaviy munosabatlarni psixologik moslik, o‘zaro hurmat, samarali muloqot va ijtimoiy rollarni uyg‘unlashtirish nuqtai nazaridan tushunishga imkon berib, zamonaviy oila psixologiyasida, xususan, oilada gender teng munosabatlarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [4; 127-b.].

Oilada er-xotin nizolarini chuqur tadqiq etgan olimlardan biri X.K.Karimov bo‘lib, uning dissertatsion tadqiqotlari va ilmiy maqolalari asosan o‘zbek oilalaridagi er-xotin nizolarini boshqa millatlar, jumladan, rus, ukrain va boshqa oilalardagi nizolar bilan qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan. Olimning ta’kidlashicha, o‘zbek oilalarida er-xotin munosabatlarida yuzaga keladigan nizolar o‘ziga xos etnopsixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning shakllanishida nikohgacha bo‘lgan omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bo‘lajak er-xotinning bir-birini yetarlicha tanimasligi, o‘zaro muloqot va tanishuv imkoniyatlarining cheklanganligi, shuningdek, nizoli vaziyatlarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish o‘rniga ota-ona yoki boshqa tashqi omillarga tayanish kabi holatlar oilaviy ziddiyatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. X.K.Karimov er-xotin nizolarini ularning kelib chiqish sabablari, ishtirokchilar soni, ifodalanish darajasi, nizo o‘chog‘i, yo‘nalishi va rivojlanish bosqichlariga ko‘ra tizimlashtirib, oilaviy nizolarning oldini olish, ularni bartaraf etish va oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqqan. Muallif oilaviy nizolarni qarama-qarshi fikrlar, hissiy keskinlik va shaxslararo to‘qnashuvlar bilan bog‘liq psixologik hodisa sifatida talqin qilib, ularning uzoq davom etishi shaxsda vahima, qo‘rquv, xavotir va adovat kabi salbiy emotsional holatlarni yuzaga keltirishi, psixologik himoya reaksiyalarini kuchaytirishi hamda oilaviy muhit barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [1; 20-21-b.].

Tadqiqotning natijalari va uning muhokamasi. Bizning tadqiqotimiz yuqorida qayd etilgan olimlarning ilmiy qarashlaridan biroz farq qilib, o‘zbek oilalarida nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va ularni hal etish usullarini ijtimoiy-psixologik omillar majmui nuqtai nazaridan kompleks tadqiq etishga yo‘naltirilgan. Xususan, er-xotinning o‘zaro munosabatlari, oilaviy qadriyatlar va tasavvurlar, o‘zaro hurmat va ishonch, muloqot madaniyati, hissiy barqarorlik, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish xususiyatlari, oilaviy vazifa va mas’uliyatlarning taqsimlanishi,

shuningdek, shaxslararo emotsional qo‘llab-quvvatlash kabi omillarning nizoli vaziyatlarning shakllanishi va ularni konstruktiv hal etishdagi o‘rni kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Shu bilan birga, tadqiqotda oila a’zolarining individual-psixologik xususiyatlari, nizoga munosabat, emotsional reaksiyalar, muloqot strategiyalari, psixologik himoya mexanizmlari hamda nizolarni hal qilish usullarining oilaviy munosabatlar barqarorligiga ta’siri inobatga olindi. Bunday yondashuv oilaviy nizolarni faqat salbiy hodisa sifatida emas, balki uning kelib chiqish sabablari, psixologik dinamikasi va hal etish strategiyalariga bog‘liq bo‘lgan murakkab shaxslararo jarayon sifatida tadqiq etish imkonini berdi.

Tadqiqot ishimizda o‘zbek oilalarida nizoli vaziyatlarning yuzaga kelish sabablari o‘rganish maqsadida K.N.Tomasning «Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash» metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodika orqali oilaviy munosabatlar kontekstida shaxslararo nizolarning yuzaga kelish xususiyatlari, respondentlarning nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalari hamda ularni hal etishga bo‘lgan yondashuvlari aniqlandi. Tadqiqotda nizolarni bartaraf etishda raqobat, hamkorlik, murosa, chetlanish va moslashish kabi asosiy strategiyalarning namoyon bo‘lish darajasi o‘rganilib, ularning oilaviy munosabatlar barqarorligi bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilindi. Olingan natijalar oilaviy nizolarning psixologik xususiyatlarini aniqlash va ularni konstruktiv hal etish usullarini belgilash uchun empirik asos bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, aniqlangan xulq-atvor strategiyalari oilaviy nizolarning oldini olish va ularni konstruktiv boshqarishga qaratilgan psixologik tavsiyalarni ishlab chiqish uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

1-jadval.

Tomasning “Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash” metodikasi shkalalari bo‘yicha natijalar tahlili (n=289)

Shkalalar	Jinsi	M	σ	t
Raqobat	Erkak n= 143	7,2	1,30	-3,02*
	Ayol n=146	5,2	1,08	
Hamkorlik	Erkak n= 143	4,6	1,27	-2,78*
	Ayol n=146	6,1	1,30	
Murosaga kelish	Erkak n= 143	3,4	1,71	0,76
	Ayol n=146	4.0	1,24	
Vaziyatdan qoshish	Erkak n= 143	4,6	1,78	-2,56*
	Ayol n=146	6,9	1,93	
Moslashish	Erkak n= 143	6,9	1,36	-2,03*
	Ayol n=146	4,1	1,03	

Izoh: *p≤0,05; *** p≤0,001

Tomas metodikasi asosida tadqiqotimiz davomida olingan empirik ma’lumotlarning o‘ziga xos tahlili shaxslarning nizoli vaziyatlardan chiqish motivatsiyasi bilan bog‘liq holatlarni ilmiy interpretatsiya qilishni taqozo etadi. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tahlil oilaviy munosabatlarda turli muammolar bilan bog‘liq ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etishga bo‘lgan motivatsiya ko‘rsatkichlari haqida zarur ma’lumotlarni olish imkonini beradi. Tomas metodikasi natijalarini tahlil qilishdan asosiy maqsad tadqiqot obyektlarining har bir guruhiga xos bo‘lgan motivatsiya ko‘rsatkichlarini empirik jihatdan baholash hamda ulardagi nizoli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan individual-psixologik yondashuvlarni belgilashdan iborat. Bunda har bir ko‘rsatkich Tomas metodikasida belgilangan beshta asosiy mezon – raqobat, hamkorlik, murosa, chetlanish va moslashish strategiyalari doirasida tahlil qilinadi. Keltirilgan jadval ma’lumotlarining interpretatsiyasi shuni ko‘rsatadiki, mazkur metodika yordamida aniqlangan ko‘rsatkichlar aholining turli guruhlarida nizoli vaziyatlarga munosabat va ularni hal etish strategiyalarining o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishini ifodalaydi.

Metodikadagi dastlabki «raqobat» omili bo‘yicha tadqiqot obyektlari o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlandi (t=-3,02*, p≤0,05). «Raqobat» omili boshqa mezonlarga nisbatan har ikki guruhda ham yuqori ko‘rsatkichni qayd etdi. Demak, Tomas metodikasida belgilangan beshta asosiy mezon orasida raqobat strategiyasining yetakchi o‘rinni egallashi oilaviy munosabatlarda bahs-munozaraga moyillik, o‘z «Men»ini ustun qo‘yish, turli vaziyatlarda o‘z fikri va qarashlarini boshqalarnikidan ustun qo‘yishga intilish kabi xulq-atvor xususiyatlarining namoyon bo‘lishi bilan izohlanishi mumkin. Tadqiqot natijalari erkaklarda ijtimoiy «Men»ning shakllanishi va o‘zgarishi, shuningdek, o‘ziga va boshqalarga nisbatan munosabatlarning adekvatligi bilan bog‘liq psixologik xususiyatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Shuningdek, nizoli vaziyatlarda qo‘llaniladigan xulq-atvor strategiyalari tahlili erkaklarda «raqobat» uslubidan foydalanish ko‘rsatkichi ayollarga nisbatan yuqoriroq ekanini ko‘rsatdi. Bu holat oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan nizolarni hal etishda ustunlikka intilish, o‘z pozitsiyasini himoya qilish va qat’iy xulq-atvor strategiyalariga murojaat qilish tendensiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ayrim hollarda mazkur tendensiyalar bolalik davrida shakllangan xulq-atvor modellari va zo‘ravonlikka nisbatan shakllangan munosabatlar bilan ham uyg‘unlashishi ehtimoldan xoli emas.

«Hamkorlik» omili bo‘yicha ham tadqiqot guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlar kuzatildi (t=-2,78*, p≤0,05). Mazkur ko‘rsatkich ayollarda erkaklarga nisbatan yuqori natijani qayd etdi. Tadqiqot natijalari ayollarda raqobat va qarama-qarshilikka nisbatan hamkorlik strategiyasini tanlash tendensiyasi ustun ekanini ko‘rsatadi. Bu holatni murakkab va ziddiyatli vaziyatlarda muammoni hal etishning samarali usuli sifatida o‘zaro kelishuv va hamkorlikka intilishning yuqoriligi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, ayollarda hamkorlik bilan bir qatorda moslashish strategiyasiga moyillikning ham nisbatan yuqori ekanligi ularning oilaviy munosabatlarda psixologik moslashuvchanlik, vaziyatni

inobatga olish va yangi oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yishga intilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Erkaklarda esa shaxslararo munosabatlarda o'zaro yordam, kelishuv va bir-biriga moslashishga asoslangan xulq-atvor strategiyalarining nisbatan kamroq namoyon bo'lishi kuzatildi. Mazkur holat erkaklarda nizoli vaziyatlarda o'z pozitsiyasini himoya qilish va mustaqil qaror qabul qilishga intilishning yuqoriligi bilan bog'liq bo'lishi ehtimol. Shu nuqtai nazardan, hamkorlik strategiyasining pastroq namoyon bo'lishi oilaviy munosabatlarda o'zaro tushunish va konstruktiv muloqotni shakllantirishda muayyan psixologik qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

«Murosaga kelish» omili bo'yicha tadqiqot obyektlari o'rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlanmadi (t=0,76, p≤0,19). Har ikki guruhga mansub respondentlarda ham «murosaga kelish» shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlarning nisbatan past darajada ekanligi kuzatildi. Bu holat nizoli vaziyatlarda ishtirokchilarning o'zaro yon berish, muayyan manfaatlarini qisman cheklagan holda umumiy yechimga kelish, hamkorlikda faoliyatni tashkil etish va oilaviy munosabatlarda psixologik moslashuvchanlikni namoyon etish tendensiyasi yetarlicha shakllanmaganini ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, oilaviy munosabatlarda umumiy manfaatlarni shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish va ziddiyatli vaziyatlarda o'zaro kelishuvga erishishga tayyorlikning pastligi nizolarning uzoqroq davom etishiga olib keluvchi omillardan biri bo'lishi ehtimol. Biroq mazkur ko'rsatkich bo'yicha guruhlar o'rtasida ishonchli farqning mavjud emasligi murosaga kelish strategiyasining jins omiliga nisbatan emas, balki oilaviy tajriba, muloqot madaniyati, shaxslararo munosabatlar va individual-psixologik xususiyatlar kabi boshqa omillarga ko'proq bog'liq bo'lishi mumkinligini anglatadi. Umuman, «murosaga kelish» strategiyasining past namoyon bo'lishi o'zbek oilalarida nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish, o'zaro yon berish va manfaatlarni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi.

«Vaziyatdan qochish» omili bo'yicha ayollar va erkaklar ko'rsatkichlari o'rtasida statistik jihatdan ishonchli farq aniqlanib, mazkur strategiya ayollarda nisbatan yuqori darajada namoyon bo'lgan (t=-2,56*, p≤0,05). «Qochish» strategiyasi shaxsning nizoli vaziyatda o'z manfaatlari va huquqlarini faol himoya qilishdan voz kechishi, muammoni hal etish jarayonida hamkorlikka kirishmasligi yoki ziddiyatli vaziyatni bevosita hal etishdan chetlanishi bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari ayollarda mazkur xulq-atvor strategiyasining ustunligi nizoli vaziyatlarda emotsional zo'riqishdan qochish, ziddiyatni kuchaytirmaslik va munosabatlarni saqlab qolishga intilish bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, «vaziyatdan qochish» strategiyasining yuqori namoyon bo'lishi muammoning konstruktiv yechimini kechiktirishi va hal etilmagan ziddiyatlarning to'planishiga olib kelishi ehtimol. Mazkur natija oilaviy munosabatlarda ayollarning nizoli vaziyatlarga moslashish xususiyatlari va ularni hal etishda qo'llaydigan psixologik strategiyalarini o'rganish muhimligini ko'rsatadi.

Metodikadagi so'nggi «moslashish» omili bo'yicha ham guruhlar o'rtasida muayyan farq kuzatildi (t=-2,03, p≤0,19). Mazkur ko'rsatkich erkaklarda ayollarga nisbatan yuqoriroq natijani qayd etdi. Bu holat erkaklarda o'z maqsadlari bilan bir qatorda boshqalarning maqsad va manfaatlarini ham inobatga olgan holda harakat qilish, oilaviy munosabatlarda ehtiyotkorlik bilan yondashish, o'z muomalasi va xulq-atvorini nazorat qilishga intilish kabi xususiyatlarning nisbatan ustunligini ko'rsatadi. Shuningdek, erkaklarda ijtimoiy-rolli kutilmalarga muvofiq oilada shakllangan tartib-qoidalarni qabul qilish va ularga moslashish tendensiyasi yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Mazkur natijalarni oilaviy munosabatlarda mavjud ijtimoiy rollar va kutilmalarga moslashish, munosabatlarda barqarorlikni saqlash hamda ziddiyatlarni keskinlashtirmaslikka qaratilgan xulq-atvor xususiyatlari bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga, mazkur ko'rsatkich bo'yicha farqning statistik ahamiyatini baholashda p≤0,19 qiymatini inobatga olish zarur, ya'ni ushbu natija 0,05 ahamiyatlilik darajasida ishonchli farq sifatida talqin qilinmaydi.

Olib borilgan empirik tadqiqot natijalari o'zbek oilalarida nizoli vaziyatlarni hal qilish usullari gender, shaxslararo munosabatlar va individual-psixologik xususiyatlar bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatdi. Tomas metodikasi natijalarida «raqobat» va «hamkorlik» strategiyalari bo'yicha guruhlar o'rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlangani nizoli vaziyatlarda xulq-atvor strategiyalarining gender xususiyatlariga ega ekanini ko'rsatadi. Xususan, erkaklarda raqobat strategiyasining, ayollarda esa hamkorlik strategiyasining yuqoriroq namoyon bo'lishi ularning nizoli vaziyatlarda o'z manfaatlarini himoya qilish, o'zaro kelishuvga erishish va munosabatlarni saqlashga qaratilgan xulq-atvor yondashuvlaridagi farqlarni ifodalaydi. «Murosaga kelish» strategiyasi bo'yicha guruhlar o'rtasida ishonchli farq aniqlanmagani esa mazkur strategiyaning namoyon bo'lishi jins omilidan ko'ra, oilaviy tajriba, muloqot madaniyati va shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan ko'proq bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shuningdek, «vaziyatdan qochish» strategiyasining ayollarda yuqoriroq namoyon bo'lishi ularning nizoli vaziyatlarda emotsional zo'riqishni kamaytirish, munosabatlarni saqlab qolish yoki ziddiyatni keskinlashtirmaslikka intilish xususiyatlari bilan izohlanishi mumkin. «Moslashish» ko'rsatkichi bo'yicha erkaklarda nisbatan yuqori natija kuzatilgan bo'lsa-da, mazkur farq statistik jihatdan 0,05 darajada ishonchli emasligi sababli uni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish lozim. Umuman, tadqiqot natijalari o'zbek oilalarida nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etishda hamkorlik, samarali muloqot, o'zaro hurmat, murosa va emotsional o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, oilaviy nizolarni profilaktika qilish va psixologik korreksiyalash jarayonida erkak va ayollarning nizoli vaziyatlarga munosabatini, ustuvor xulq-atvor strategiyalarini hamda oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini kompleks hisobga olish maqsadga muvofiq.

Yuqorida bayon etilgan ilmiy-nazariy xulosalar va empirik tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, o'zbek oilalarida nizoli vaziyatlarning oldini olish, ularni konstruktiv hal etish va oilaviy munosabatlar barqarorligini ta'minlash maqsadida quyidagilarni tavsiya qilamiz:

oilaviy nizolarni profilaktika qilishda er-xotinning nizoli vaziyatlardagi ustuvor xulq-atvor strategiyalarini – raqobat, hamkorlik, murosa, chetlanish va moslashish xususiyatlarini kompleks psixologik diagnostika qilish maqsadga

muvofiq hisoblanadi;

erkaklarda raqobat strategiyasining yuqoriligini inobatga olgan holda, psixologik treninglarda konstruktiv muloqot, faol tinglash, o‘zaro kelishuv va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim;

ayollarda hamkorlik va vaziyatdan qochish strategiyalarining namoyon bo‘lish xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning o‘z fikri va manfaatlarini konstruktiv ifodalashi, psixologik chegaralarini belgilashi hamda nizoli vaziyatlarni chetlab o‘tish emas, balki ularni ochiq va samarali hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur;

har ikki jins vakillarida «murosaga kelish» strategiyasining nisbatan past ko‘rsatkichini hisobga olib, oilaviy psixologik treninglarda o‘zaro yon berish, manfaatlarni muvofiqlashtirish, muzokara olib borish va ikki tomon uchun maqbul qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish tavsiya etiladi;

oilaviy nizolarni bartaraf etishda gender stereotiplari, oilaviy rollar va mas’uliyatlarning taqsimlanishi, muloqot madaniyati hamda emotsional munosabatlarni kompleks ravishda hisobga olish, er-xotin o‘rtasida o‘zaro hurmat va teng sheriklik tamoyillarini mustahkamlash maqsadga muvofiq hisoblanadi;

nikohdan oldingi psixologik tayyorgarlik va oilaviy maslahat dasturlarini takomillashtirish, ularning mazmuniga nizolarni konstruktiv hal etish, emotsional o‘zini boshqarish, samarali muloqot, psixologik moslashuv va oilaviy mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan maxsus treninglarni kiritish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Arapbayeva, D. K. Oilaviy munosabatlar psixologiyasining nazariy va amaliy masalalari : metodik qo‘llanma / D. K. Arapbayeva, N. T. Norkulova. - Toshkent : GOLD-PRINT NASHR, 2019. - 112 b.

[2] Saidov, A. I. Oilada yoshlarning sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari : psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi / A. I. Saidov. - 2022. - 230 b.

[3] Tovbayeva, M. S. Muammoli oilalarning gender munosabatlarida psixologik despotizm profilaktikasi : psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi / M. S. Tovbayeva. - 2022. - 135 b.

[4] Oila psixologiyasi : akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma / G‘. B. Shoumarov va boshq. - Toshkent : Sharq, 2008. - 296 b.